Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 316
IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR

UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI YARATISH G'OYASI KONTEKSTIDA MOBIL INSON KONSEPSIYASI

Iqboloy G'ayrat qizi Fayzullayeva*
Toshkent davlat transport universiteti tayanch doktoranti
✉ fayzullayevaiqboloy94@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada zamonaviy jamiyat taraqqiyoti sharoitida inson kamoloti masalasi tahlil etiladi, zamonaviy jamiyat uchun zarur bo'lgan yangi tipdagi inson modeliga alohida e'tibor qaratiladi. Bu inson doimiy o'z-o'zini takomillashtirishga intiladigan, bilim va ko'nikmalarini boyitib borishga tayyor, axborotni tanqidiy tahlil qila oladigan va jamiyat manfaatlarini anglab yetgan shaxs sifatida tavsiflanadi.

Kalit so'zlar

Uchinchi Renessans, zamonaviy jamiyat, komil inson, mobil inson, mobillik, kasbiy mobillik, ijtimoiy mobillik.

DOI: 10.5281/zenodo.22053892

KIRISH

Zamonaviy bilimlar bilan qurollangan, mustaqil fikrlaydigan, tez o'zgarayotgan vaziyatlarga moslasha oladigan shaxsni shakllantirish masalasi barcha davrlarda ham muhim vazifa hisoblangan. Mobil inson konsepsiyasi zamonaviy jamiyatdagi tezkor o'zgarishlar bilan bog'liq ob'ektiv zaruratdan kelib chiqadi. "Bugungi davrda mehnat bozori ko'plab an'anaviy kasblarning yo'qolishi va yangilariningpaydo bo'lishi, texnologiyalarning tez almashishi, ish uslublarining salmoqli qismi masofaviy va gibrid ko'rinishlarga o'tishi, multimadaniy muhitda muloqotning kuchayishi, axborot oqimining beqiyos sur'atda o'sishi bilan tavsiflanadi"[1].

Bunday sharoitda insondan faqat bir kasbni mukammal egallash emas, balki butun umr davomida o'qish, qayta o'qish, qayta tayyorlanish, yangi sohalar bilan integratsiya qilish, o'z zimmasiga yangi vazifalar olish talab etiladi. Mobil inson, avvalo, "o'rganishga tayyor inson, o'zining bilim chegarasini anglay oladigan inson, o'z-o'zini rivojlantirishni hayot normasiga aylantirgan inson demakdir" [2]. Shu ma'noda mobillik faqat jismoniy harakat yoki ish joyini almashtirish emas; u intellektual mobillik, ijtimoiy mobillik, kasbiy mobillik, madaniy mobillik va psixologik barqarorlikni o'z ichiga olgan kompleks qobiliyatdir.

Mobil inson obyektiv zaruriyatga moslashuvchanligi yuqori insondir. Ya'ni qo'shimcha o'qishga, kasbini, korxonasini, turar joyini, shahrini o'zgartirishga tayyor turadi. Unda jamoaviylik tuyg'usi yaxshi rivojlangan, komanda bo'lib ishlay olish ko'nikmasi shakllangan, o'z shaxsini takomillashtirishga intiluvchi insondir.

"Ijtimoiy mobillik" tushunchasi ilmiy muomalaga birinchi bor rus va amerikalik sotsiolog Pitirim Sorokin tomonidan kiritilgan bo'lib, u "jamiyat a'zolarining ijtimoiy tuzilma bo'ylab harakati"[3]ni ifodalaydi. Ya'ni inson o'z faoliyati, bilim va mehnati orqali jamiyatdagi mavqeini o'zgartiradi yuqoriga ko'tarilishi yoki pastga tushishi mumkin. Ijtimoiy mobil shaxs o'z hayotida faol, mustaqil fikrlash va o'z ustida ishlash ko'nikmasiga, tez o'zgarayotgan va yangilanayotgan texnologiyalarga moslashib borish, o'zgaruvchan sharoitlarda to'g'ri qaror qabul qila oladigan, yangilikka ochiq insondir. Ijtimoiy mobillik falsafiy nuqtai nazardan insonning jamiyatdagi o'rni va rollarini o'zgartirish imkoniyati, ijtimoiy imkoniyatlarning kengligi, adolatli raqobat muhiti, mehnat va bilimning qadrini e'tirof etish kabi kategoriyalar bilan bog'lanadi.

Kasbiy mobillik esa insonning mehnat faoliyatida yangi kompetensiyalarni o‘zlashtirishi, turli vazifalarga moslasha olishi, fanlararo fikrlay olishi, texnologiya va boshqaruv madaniyatini qabul qilishi bilan belgilanadi. “Bu yerda ta’lim-tarbiyaning vazifasi insonni tayyor qolipga solish emas, balki unda universal kompetensiyalarni, ya’ni tanqidiy fikrlash, muammoni tahlil qilish, qaror qabul qilish, muloqot qilish, hamkorlikda ishlash, etik tanlov qilish, o‘z hissiyotini boshqarish, stresslarga chidamli bo‘lish, o‘zini motivatsiyalash kabi sifatlarni shakllantirishdan iborat”[4]. Uchinchi Renessans g‘oyasi aynan shunday insonni talab qiladi, chunki renessans sharoitida innovatsiya va yangilanish tezlashadi, bu esa insonning ichki tayyorgarligi va ijtimoiy institutlarning moslashuvchanligini talab etadi.

Kasbiy mobillik insonning mehnat faoliyatida kasb, lavozim, malaka yoki sohasini o‘zgartirish, yangi ko‘nikmalarni egallash, mehnat bozoridagi o‘zgarishlarga moslashish qobiliyatidir[5]. Bu to‘rtinchi sanoat inqilobi – sun’iy intellekt, avtomatlashtirish, robotlashtirish keng qo‘llanilayotgan sharoitda o‘ta muhimdir. Chunki, avval ta’kidlanganidek, ko‘plab an’anaviy kasblar barham topib, yangilari vujudga keladi. Aholining keng qatlamlari bunga tayyor bo‘lishi, kasbini o‘zgartirishi lozim. Kasbiy mobillik psixologiyasini tarbiyalamasdan, biz to‘rtinchi sanoat inqilobi talablariga javob berolmaymiz. Binobarin, Uchinchi Renessans poydevorini yaratishda ham og‘ir qiyinchiliklarga duch kelamiz. Kasbiy mobil shaxs yangi kasb va texnologiyalarni o‘zlashtira oladigan, malakasini muntazam oshiradigan; ijodkor, tashabbuskor va raqobatbardosh mutaxassisdir. Masalan, raqamli iqtisodiyot sharoitida IT har bir sohadagi mutaxassislar doimiy o‘qish, o‘zini rivojlantirish orqali o‘z ish o‘rnini, jamiyatdagi faolligini saqlab turadi. Bu kasbiy mobillikning amaliy ko‘rinishidir. Bu ikki jarayon bir-biri bilan uzviy bog‘liq.

Kasbiy yutuqlar insonning ijtimoiy mavqeini oshiradi, uni jamiyatda obro‘-e’tiborli qiladi. Ijtimoiy faoliyat esa insonning kasbiy o‘sishiga imkon yaratadi, keng tarmoq va aloqalarni shakllantiradi.

Raqamli davrda mobil insonning yana bir muhim jihati media va axborot savodxonligidir. Ta’lim-tarbiya faqat kitobiy bilim bilan cheklansa, inson raqamli muhitda turli ta’sirlarga himoyasiz qolishi mumkin. Shuning uchun sifatli ta’lim-tarbiya raqamli madaniyatni, onlayn muloqot etikasini, shaxsiy ma’lumot xavfsizligini, intellektual mulkni hurmat qilishni, axborot manbalarini tekshirish qobiliyatini ham qamrab olishi lozim. Axborotning ko‘payishi haqiqatning ko‘payishiga avtomatik ravishda olib kelmaydi. Axborot ko‘p bo‘lgan joyda yolg‘on va manipulyatsiya ham ko‘payadi. Demak, mobil inson axborot okeanida yo‘l topa oladigan, tanqidiy fikrlaydigan, haqiqat va yolg‘onni farqlaydigan, ma’naviy pozitsiyasini yo‘qotmaydigan shaxsdir. Uchinchi Renessans g‘oyasi esa haqiqatga sadoqat, ilmiy adolat, intellektual halollik kabi tamoyillarni ta’lim-tarbiyaning markaziga qo‘yishni taqozo qiladi.

Mobil inson konsepsiyasining ijtimoiy poydevori sifatida ma’naviyat va madaniyatning roli ham katta. Renessans odatda milliy subyektlarning, milliy madaniyatning umuminsoniylik, jahoniy qadriyat yaratish nuqtai nazaridan o‘z-o‘zini anglashini kuchaytiradi, tarixiy merosga yangi nazar bilan qarashni talab qiladi, ijodiy an’analarni qayta talqin qiladi va rivojlantiradi, xalqaro maydonga olib chiqadi. Shu ma’noda sifatli ta’lim-tarbiya milliy o‘zlikni anglash bilan xalqaro ochiqlikni uyg‘unlashtirishi lozim. Milliy o‘zlik insonga ildiz va ma’no beradi, ochiqlik esa uni dunyoviy taraqqiyot bilan bog‘laydi. Agar ta’lim faqat an’anaviy shaklga yopishib olsa, innovatsiyaga qarshi immunitet paydo bo‘ladi; agar ta’lim faqat global trendlarga taqlidga aylansa, milliy ma’naviy o‘zlik yemiralishi mumkin. Uchinchi Renessans kontekstida mana shu muvozanatni topish muhim ilmiy-falsafiy vazifa hisoblanadi. Mobil inson milliy qadriyatlarga tayangan holda, global va amaliy kompetensiyalarni o‘zlashtira oladigan, multimadaniy muhitda o‘z qadrini yo‘qotmaydigan shaxsga aylanadi.

Mobil inson konsepsiyasi, shuningdek, iqtisodiy taraqqiyotning strategiyasi bilan ham chambarchas bog‘liq. Zamonaviy global iqtisodiyot transformatsiya jarayonida bilim iqtisodiyoti, innovatsiya iqtisodiyoti, raqamli iqtisodiyot xususiyatlarini olmoqda. Bu iqtisodiy tizimlarda qo‘shilgan qiymat asosan bilim, tadqiqot, dizayn, boshqaruv, texnologiya, ijodiy yondashuv orqali yaratiladi. Demak, ta’lim-tarbiya insonni faqat ijrochi emas, qo‘shimcha qiymat yaratuvchi subyektga aylantirishi kerak. Mobil inson bunday iqtisodiy muhitda o‘z kasbiy yo‘lini qayta qurishdan qo‘rqmaydi, yangi sohalarga o‘ta oladi, tadbirkorlikka kirisha oladi, texnologik yangiliklarni tez o‘zlashtiradi. Lekin iqtisodiy samara faqat moliyaviy ko‘rsatkich emas, u ijtimoiy farovonlik, adolat, ekologik barqarorlik, mehnat huquqlari, mehnat etikasi kabi umuminsoniy mezonlar bilan ham o‘lchanadi. Shu bois ta’lim-tarbiya mobil insonda ijtimoiy mas’uliyat va etik pozitsiyani shakllantirishi talab

etiladi, aks holda innovatsiya insonparvar maqsadlardan uzilib qolishi mumkin.

O‘zbekiston ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, raqobatdosh kadrlarni tayyorlash, ta’limsifatini oshirish va uzluksiz ta’lim tizimini mustahkamlash maqsadida 2020-yil 19-mayda “Ta’lim to‘g‘risida” gi yangi tahrirdagi Qonun qabul qilindi. Bu orqali ta’lim jarayoni xalqaro standartlarga moslashtirildi. Avvalo Uchinchi Renessans g‘oyasining amaliy samarasi ta’lim-tarbiya tizimidagi integratsiya jarayonlariga bog‘liq. Ta’limning turli bosqichlari, maktabgacha ta’limdan oliy ta’limgacha, keyingi kasbiy ta’lim va qayta tayyorlashgacha uzviy tizimga aylanmasa, mobil inson konsepsiyasi to‘liq ishlamaydi. Shuning uchun uzluksiz ta’lim g‘oyasi Uchinchi Renessans kontekstida markaziy ahamiyat kasb etadi.

2019-yil 31-dekabrdagi “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori qabul qilindi. Ushbu konsepsiya shaxsni hayot davomida uzluksiz ravishda bilim, ko‘nikma, qadriyat va tarbiya asosida rivojlanishga qaratilgan pedagogik jarayon hisoblanadi. Uzluksiz ta’lim insonga hayot davomida o‘qishni me’yorga aylantirishni, o‘z kasbiy va shaxsiy rivojlanishini rejalashtirishni, bilimni yangilashni, yangi kompetensiyalarni o‘zlashtirishni ta’minlaydi. Falsafiy nuqtai nazardan uzluksiz ta’lim insonning kamolot yo‘lini uzluksiz jarayon sifatida ko‘radi, insonni tayyor holat deb emas, doimiy shakllanuvchi, o‘zini yaratayotgan sub’ekt deb qabul qiladi. Mobil inson konsepsiyasi aynan shu falsafiy-antropologik qarashga tayanadi. Insonning subyektligini saqlab qolish, mustahkamlash, nofaol obyektga aylanib qolishining maksimal oldini olish. Bu maqsadda ijtimoiy mobil insonni tarbiyalash lozim.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, Uchinchi Renessansning haqiqiy mazmuni bilimli, ma’naviyatli, adolatparvar, innovatsion, mas’uliyatli, o’zini anglagan, dunyoga ochiq, intellektual va emotsional barkamol insonni voyaga yetkazishda namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ham ta’lim-tarbiya renessans poydevorini yaratish omili sifaida yuzaga chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Бикеева О. Человек и IT-цивилизация. Россия и мир в новое и новейшее время-из прошлого в будущее, 2019. – С. 62..
2. Нариньяни А.С. E-homo: новый человек ближайшего будущего. Человек. RU, 2010.– С. 39.
3. Dribe M., Van Bavel J., Campbell C. Social mobility and demographic behavior: Long term perspectives. Demographic Research, 2012. – P. 179.
4. Sultanova A. Texnologik yondashuvlar asosida talabalarda kasbiy mobillikni shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslari. Экономика и социум, 2025. – С. 757.
5. Pedagogika ensiklopediyasi – Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2015. – B. 221-222.